

Dream Weight and Folk Song

Rajabov Dilshod Zaripovich

Doctor of Philology, Professor of Bukhara State University

Rajabova Ra'no Zaripovna

Bukhara State University, Faculty of Philology Doctor of Philosophy (PhD)

Annotation: *In addition to studying the role of dreams in folklore, the article examines its practical side, ie the question of singing folk songs, as well as Alisher Navoi's thoughts on the dream of the people, the weight of the dream with folk melodies and music. Opinions are expressed.*

Keywords: *folklore, songs, singing, Alisher Navoiy, melodies, music.*

O'zbek og'zaki va yozma adabiyotida barmoq vazni bilan bir qatorda aruzda ham kam bo'lsa-da asarlar yaratilib kelingan. Aruzning ham xalq og'zaki ijodiyotida tutgan o'rni e'tiborlidir. Alisher Navoiyning, Zahiriddin Muhammad Boburning, Abdurauf Fitratning xalq aruziga oid qarashlari mavjud. Shu asosda har uchala olimning arab, fors-tojik aruzshunoslariga munosabatini aniqlashga harakat qilish mumkin.

Aruz vazni arab, fors-tojik xalq og'zaki she'riyatiga xos bo'libgina qolmay, o'zbek xalq og'zaki she'riyatida ham o'ziga xos ekanligini Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa allomalar o'z asarlarida izohlab berganlar. Ummat To'ychiev, Anvar Hojiahmedov va boshqa tadqiqotchilar ham bu masala yuzasidan o'z nuqtai nazarlarini bayon etishgan.

Xalq og'zaki ijodiyotida aruzning tutgan o'rnini, uning mavqeini va boshqa tomonlarini o'rganish bilan birgalikda, uning amaliy tomonini, ya'ni xalq qo'shiqlarining aruzga solib kuylanishi masalasini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. Alisher Navoiyning xalq aruzi haqidagi fikrlari, aruz vazni xalq kuylari, musiqasi ohanglari bilan bog'liq. Hali aruz vazni ilm sifatida shakllanib yetmagan davrlarda ham she'rlar yaratilgan. Bunda shoirning bolalikdan (ona allasidan) boshlab eshitgan ohanglari, to'y-tomoshalarda o'zi ham ishtirok etib aytgan qo'shiqlari, mohir sozandalarning turli musiqa asboblarida ijro etgan qo'shiqlari, mashhur hofizlar aytgan va shoir qulog'ida iz qoldirgan navolari ham muhim ahamiyatga ega. Mana shu musiqiylik she'r yozayotganda shoir uchun andoza (tosh-tarozi) rolini bajaradi.

Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida aruzning qonun-qoidalari, taqte', rukn va shunga o'xshash masalalarni sharhlash bilan birga, yozma va xalq og'zaki ijodi o'rtasidagi aloqalarni birinchi marta yoritdi. U o'zbek og'zaki va yozma adabiyot hamkorligi tufayli rivojlangan (tuyuq), xalq og'zaki ijodidagi janrlarning yozma adabiyotga kirib borishi (changi yoki yor-yor) masalalariga alohida to'xtalib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida xalq aruzi haqida shunday misollar keltiradi: "Yana "chinga" durkim, turk ulusi zufof va qiz ko'chiruv to'ylarida ani ayturlar, ul surudedur bag'oyat mutassir va ikki nav'dir. Bu nav'i hech vazn bila rost kelmas va bir nav'ida bir bayt aytilurkim, munsarihi matviyi mahzuf bahridur va yor-yor lafzini radif o'rnig'a mazkur qilurlar, andog'kim:

Qay-si cha-man-/din e-sib/ kel-di/sa-bo/yo-r(i) yor,

Kim da-mi din/tush-ti o't'jo-ni-ma ro/yo-r(i) yor.

— V — / — V — / — V V — / — V —

Muf-ta-i-lun fo-i-lun muf-ta-i-lun fo-i-lun

Munsarihi musammani matviyi marfu'i muzoll.

Alisher Navoiy turk xalqini maqtab, qiz ko'chiruv to'ylarida yor-yorni aytishlarini e'tirof etgan va ikki turdan iborat ekanligini, bir turi esa aruz qoidalari to'g'ri kelmacligini, ya'ni u barmoq vaznida ekanligini aytadi.

“Alisher Navoiy o'zbek xalq qo'shiqlari “chinga”, “mustazod”, “aruzvoriy”, “turkiy” kabilar bilan yozma adabiyotdagi aruz vazni o'rtasida mushtaraklik borligi haqida birinchi bo'lib yozadi. Oyoq va qo'l harakatlari ritmida yaratilgan bu folklor materiallarining vazni aruz vazniga mos kelishini alohida ta'kidlaydi. Bu esa aruz vazni turkiy tillarga to'g'ri kelmaydi deguvchilarning da'volari asossiz ekanligini ko'rsatadi”. Alisher Navoiy xalqqa mashhur bo'lgan to'qqizta yangi vazn va she'riy shaklni qayd etadi. “Navoiyning she'riy shakllar va vaznlar haqidagi fikrlarining yana bir muhim tomoni bor. Vaznlar bobida Navoiy folklor poeziyasining metrikasiga ham to'xtaydi. Birinchidan, Navoiy turkiy xalqlarda aruzdan boshqa yana mustaqil poetik vazn, metrik forma borligini bir necha marta qayd etadi”.

O'zbek xalq og'zaki ijodiyotida barmoq vaznidagi she'rlar bilan birgalikda aruz vaznidagi she'rlarni ham ko'proq uchratish mumkin. Jumladan, Buxoro, Xorazm, Farg'ona va boshqa hududlarda og'izdan-og'izga ko'chib kelgan xalq qo'shiqlaridan laparlar, o'lanlar, yor-yorlar, allalar aruz vazniga tushushining guvohi bo'lish mumkin. Kuzatishimizcha, xalqda mashhur bo'lgan bahrlar soni uchtani tashkil etadi. Bular: ramal, hazaj va rajaz bahrlaridir. “Ramal” so'zi “tuyaning lo'kkillashi” degan ma'noni bildiradi. Ramal bahri “foilotun” ruknidan hosil bo'ladi. “Foilotun” rukni zihofga uchramasa, solim shaklini, agar zihofga uchrasa, mahzuf yoki maqsur shaklini yuzaga keltiradi. Qiziqarlisi shundaki, xalq qo'shiqlarida aruz vaznidagi ruknlar soni sakkizta, ya'ni musamman shaklini ko'proq uchratamiz. Ba'zi-ba'zida esa ruknlar soni to'rtta yoki oltita, ya'ni murabba' va musaddas shaklini uchratib qolish mumkin. Fikrimizni isbotlash uchun Farg'ona xalq qo'shiqlaridan misollar keltiramiz. Negaki, aruzning o'zbek folklorida qo'llangan tarmoqlaridan biri Farg'ona xalq qo'shiqlari misolida namoyon bo'ladi.

O – la-pak-kim / xo-na-zod-dir,

Qo – ra-ba-yir/as-li ot-dir,

Ki-ra-kash-lik / un-ga yot-dir,

Ko'z-la-ga-nim /Qo'sh-ra-bot-dir.

— V — — / — V — —

Fo- i- lo- tun fo-i-lo-tun

Mazkur qo'shiq misralari ramali murabbayi solim bahriga to'g'ri kelayotir. Ushbu satrlarda “foilotun” ruknini zihofga uchramaganligi uchun solim shakli yuzaga kelgan. Farg'ona xalq qo'shiqlarida ramal bahrining solim shaklini kamdan-kam uchratamiz. Ularda ko'pincha mahzuf va maqsur zihof shakllari uchraydi. Quyidagi qo'shiq matni fikrimizga dalil bo'la oladi:

Ze – bi-jon hay-/ da qo'-ying-ni / bo-qa-man,

Lab-la-ring-dan / pis-ta bo-dom /cha-qa-man.

— V — — / — V — — / — V —

Fo- i- lo- tun fo-i-lo-tun fo-i-lun

Bu bayt yuqoridagi kabi xalqimizning mehnat jarayonida aytiladigan qo'shiqlaridan biri bo'lib, vazniga ko'ra ramali musaddasi mahzufda yaratilgan.

Yoki:

*Qo -ra shol-dan /ko 'y-la gim qon-/ lar-ga to 'l-di / yu-ra-gim,
Zar- ga to 'l-di / bi-la-gim zar- / dob-ga to 'l-di / yu-ra-gim.
--- / - V --- / - V --- / - V ---
Fo- i- lo- tun fo-i-lo-tun fo- i- lo- tun fo-i-lun*

Bu misralar aruzning ramali musammani mahzuf vazniga to'g'ri keladi.

Aruzning ramali musammani mahzuf bahri xalqimiz orasida ko'p uchraydi:

*Ik - ki bul-bul / say-ra-sha-di/tog 'u cho 'l-lar/dan u-chib,
Chan- qa-sa suv-/lar i-cha-di/bog '-u bo 's-ton-/ga ke-lib.
- V --- / - V --- / - V --- / - V ---
Fo- i- lo- tun fo-i-lo-tun fo- i- lo- tun fo-i-lun*

Yana:

*Sham- chi-roq '-ni/ yon-ga-ni-dan/ yon-ma-ga-ni/yax-shi-roq,
Be- va-fo yor / bo 'l-ga-ni-dan / bo 'l-ma-ga-ni / yax-shi-roq.
- V --- / - V --- / - V --- / - V ~
Fo- i- lo- tun fo-i-lo-tun fo- i- lo- tun fo-i-lun*

Bu qo'shiq xalqda mashhur bo'lgan qo'shiqlardan biri bo'lib, uning vazni ramali musammani maqsurdadir. Demak, dono xalqimiz bir xillikdan qochish maqsadida foilotun ruknining boshqa zihoflarga tushadigan vaznlarini ham yaratgan.

*Gu- li-dan o/lay de-sam, bir / yo-ni-da g 'un- /cha-si bor,
Yor bi-lan o 'y-/ nay de-sam,o/ yo-ni-da bach-/ cha-si bor.
- V --- / - V --- / - V --- / - V ~
Fo- i- lo- tun fo-i-lo-tun fo- i- lo- tun fo-i-lun*

Bu bayt ham aruzning ramali musammani maqsur vazniga tushadi.

Yana:

*Sak- ra-bon bo/ ing-ga tush-dim/bir qi-zil ol/ma u-chun,
Bir qi-zil ol -/mang-ni uz-dim/sen qa-lan-dar/ yor u-chun.
- V --- / - V --- / - V --- / - V ---
Fo- i- lo- tun fo-i-lo-tun fo- i- lo- tun fo-i-lun*

Bu bayt ham ramali musammani mahzuf vaznida yaratilgan.

*Qi- za-rib to 'n/ga sig '-mas-man/a-gar ko 'r-sam/ja-mo-ling-ni,
Ja- hon o-lam-/ga ber-mas-man/se-ning bir jo '-/ra xo-ling-ni
V ---- / V ---- / V ---- / V ----*

Ma-fo-iy-lun ma-fo-iy-lun ma-fo-iy-lun ma-fo-iy-lun

Bu bayt aruzning hazaji musammani solim vazniga tegishlidir. Chunki mafoiylun ruknining takroridan hazaj bahri hosil bo'ladi. Ruknlar soni sakkizta bo'lganligi uchun musamman shakli, mafoiylun rukni hech qanday zihofga uchramaganligi, ya'ni to'liq, solimligi uchun solim shakli vujudga keldi.

Oz -mi di bi- / lak-la-rim /ko 'p mi-di ti-/lak-la-rim,

Yet- ti qat yer / os-ti-da / chi-ri-di su- / yak-la-rim.

- V - - / - V - / - V - - / - V -

Fo- i- lo- tun fo-i-lun fo- i- lo- tun fo-i-lun

Bu bayt aruzning madidi musammani solim vazniga tushadi. "Madid bahri foilotun va foilun ruknlarining takroridan hosil bo'ladi. "Madid" arabcha so'z bo'lib, "cho'ziq" degan ma'noni bildiradi". Yuqoridagi vazn kamdan-kam, asosan, marosim xalq qo'shiqlarida uchraydi.

Xalq yaratgan qo'shiqlarda foilotun ruknining solim shaklini topish juda mushkul, shuning uchun ular sanoqlidir. Masalan:

To 'q-qiz-da ko 'r/dim to 'l-g 'a-nib/yo-rim chi-qa/di uy-g 'o-nib,

So-chi be-li/ga cho 'l-g 'a-nib/yor mun-cha zor/et-ding me-ni.

- - V - / - - V - / - - V - / - - V -

Mus-taf' -i-lun/mus-taf' -i-lun/ mus-taf' -i-lun/mus-taf' -i-lun

Bu bayt aruzning rajazi musammani solim vazniga tushadi. "Rajaz" so'zi arabcha so'z bo'lib, "tezlik", "iztirob" degan ma'nolarni anglatadi.

Xorazm xalq qoshiqlari Farg'ona, Buxoro va boshqa hududlardan ohangi, nutqi, obrazlar olami, vazni jihatidan birmuncha farqlanib turadi.

Xorazm xalq qo'shiq va laparlarida aruzning ramali musammani mahzuf vazn tarmog'i takrorlanib kelgan. Aruzning bu vazn tarmog'i xalq orasida keng tarqalgan.

Yor- dan ay-ril/gan yi-git-ning/yo-ri men bo 'l-/sam-mi-kin,

Qo 'li-ga qir-g 'iy be-rib ko 'k-/si-da jon ber-/sam-mi-kin.

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

Fo- i- lo- tun fo-i-lo-tun fo- i- lo- tun fo-i-lun

Ko'rinyaptiki, bu bayt aruzning ramali musammani mahzuf vazniga tegishlidir. Mazkur qo'shiq xalqda mashhur bo'lgan laparlardan biri bo'lib, yigit va qiz o'rtasida ijro etiladi. Bu jihatdan laparlar o'lanlarga o'xshab ketsa-da, mavzusi, g'oyaviy mazmuni, vazni va yengil musiqiyliigi, o'zidagi yumor-satira elementlarining o'tkirligi bilan ulardan farq qladi.

Kich-ki-na chor-/bog ' i-chi-da/charx u-chib yot-/gan yi-git,

Sal- la-sin ko 'k-/si-ga qo-yib/oh u-rib yot-/ gan yi-git.

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

Fo- i- lo- tun fo-i-lo-tun fo- i- lo- tun fo-i-lun

Bu bayt aruzning ramali musammani mahzuf vazniga tegishlidir. Bu qo'shiqda yigit-qizning tushkun holatga tushganligi va boshidagi sallasini ko'ksiga qo'yib nola chekkanligi ifodalangan. "Laparlar savol-javob tarzida yaratilgan. Bu munozara ishq-muhabbat, ro'zg'ordagi totuvsizlik, ota-

onalarning farzandlari bilan bo'lgan munosabatlari kabi hodisalar ba'zan yengil, ba'zan achchiq kulgi asosida aks ettiriladi. Xalq qo'shiqlarining laparlar turi ham juda ko'p bo'lib, ulardagi vazn kuy-ohang, musiqiylik xususiyati ham bir xildir. Sharhlanayotgan baytlar ishq-muhabbat mavzusidadir:

Qo-shi qa-ro/be-ti oq-qa-/kim be-rar ach-/chiq sha-rob,

Ko'z- la-ri o't/day yo-na-dir/qil-di bag'-rim-/ni ka-bob.

— V — — / — V — — / — V — — / — V ~

Fo- i- lo- tun fo-i-lo-tun fo- i- lo- tun fo-i-lon

Bayt ramali musammani maqsur bahrida yaratilgan.

Xorazm laparlari, odatda, savol-javob tarzida bo'ladi. Bunday laparlarning hammasi ham aruz vazniga tushavermaydi.

Da- ri-cha-dan/bosh-ni boq-qan/dil-ba-rim,

G'am- za bir-la/qosh-ni qoq-qan / dil-ba-rim.

— V — — / — V — — / — V —

Fo- i- lo- tun fo- i- lo- tun fo-i-lun

Baytning vazn tarmog'i ramali musaddasi mahzufga to'g'ri kelmoqda. Xalq laparlarining ko'pchiligida aruz vaznining turli xil tarmoqlari uchraydi.

Xullas, aruz vazni nafaqat mumtoz adabiyotdagi g'azallarni, balki xalq qo'shiqlarini ifodali va ta'sirchan kuylash uchun xizmat qiladi. Aruz vazniga tushgan laparlar, o'lanlar va boshqa turdagi xalq qo'shiqlari ipga terilgan marvaridday tovlanadi va kishini o'ziga jalb qiladi. Aruz vazniga tushgan har qanday qo'shiq, uning ohangdorligi va musiqiylikni oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek folklorida xalq aruzining juda ko'p tarmoqlari qo'llangan. Xalq yaratgan qo'shiqlarning hamma turlarida yuksak olijanob insoniy g'oyalar ixcham va sodda badiiy shakllarda, o'ziga xos vazn va ohangda ifodalangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Навоий Алишер. Мезонул-авзон. Асарлар XV томлик, XIV том. — Т.: Адабиёт ва санъат, 1967. — 272 б.
2. Тўйчиев У. Ўзбек совет поэзиясида бармоқ системаси. — Т.: Адабиёт ва санъат, 1966. — 170-б.
3. Алиев С. Аруз илми. — Бухоро, 1995. — Б.13.
4. Навоий Алишер. Мезонул-авзон. Асарлар XV томлик, XIV том. — Т.: Адабиёт ва санъат, 1967. — Б.268.
5. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. — Т.: Шарқ, 1998. — Б.110.
6. Гулёр. Фарғона халқ кўшиқлари. — Т.: Ғ.Ғулом номидаги Бадий адабиёт нашриёти, 1967. — Б.34.
7. Гулёр. Фарғона халқ кўшиқлари. — Т.: Ғ.Ғулом номидаги Бадий адабиёт нашриёти, 1967. — Б.28.
8. Олимов М. Рисолаи аруз. — Т.: Ёзувчи, 2002. — Б.50.